

**‘Oila muhitida nutqiy muloqot:muamo va yechimlari’**

Toshkent shahri **Fan va texnologiyalar universiteti**

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

**Maxmudova Maxmuda Akmalovna**

(94) 225-10-05

**Supervisor: Kamolova Kumush Yunus qizi**

Fan va texnologiyalar universiteti "Tillar" kafedrası o'qituvchisi

(90) 9799881

**Anotatsiya**

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida insoning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Oiladagi muloqot nafaqat a'zolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydi, balki uning ma'naviy asoslarini xam belgilab beradi.

**Kalit so'zlar:** empatiya, zamonaviy texnologiyalar, stress, manaviyat, insonparvarlik, nutqiy muloqot, xurmatsizlik

**Abstract**

The family, as the main social institution of society, plays an important role in the formation of a person as a person. Communication in the family not only strengthens mutual relations between members, but also determines its spiritual foundations.

**Key words:** empathy, modern technologies, stress, spirituality, humanity, speech communication, disrespect

**АНОТАЦИЯ**

Семья как главный социальный институт общества играет важную роль в становлении человека как личности. Общение в семье не только укрепляет взаимоотношения между членами, но и определяет ее духовные основы.

**Ключевые слова:** эмпатия, современные технологии, стресс, духовность, человечность, речевое

Nutqiy muloqot oila muhitining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning sifati oilaviy munosabatlarning muvaffaqiyatiga va barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Oilada nutqiy muloqot bilan bog'liq bir qator muamolar mavjud bo'lishi mumkin. Masalan: o'zaro tushunishning yo'qligi, a'zolar bir-birini to'liq tushunmasligi, fikrlarni notog'ri talqin qilishi yoki his-tuyg'ularni inkor qilinishi oilada ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Xurmatsizlik, tanqidiy munosabat va empatiyaning yo'qligi xissiy sovuqlikni shakllantiradi, aksariyat hollarda oila a'zolari o'zaro tinglash o'rniga faqat o'z fikrini ifoda etishga moyil bo'lishida. Zamonaviy texnologiyalar, jadallashgan hayot va ko'plab tashqi ta'sirlar oila a'zolari o'rtasida muloqotga vaqt ajratish imkoniyatini qisqartirib yubormoqda. A'zolar faqat o'z fikrini ustun qo'yib, boshqalarni tinglashga tayyor bo'lmasliklari mumkin. Bu ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Tashvishlar va stress tufayli a'zolar bir-birining his-tuyg'ularini tushunish va empatiya bildirishga yetarlicha e'tibor qaratolmaydilar.

Oilada a'zolari har kuni birga ovqatlanish, haftalik muhokamalar o'tkazish yoki umumiy qiziqishlarga asoslangan vaqt o'tkazish orqali muloqotni kuchaytirishi mumkin. Masalan, farzandlar bilan muntazam gaplashish ularning o'ziga ishonchini oshiradi. Tinglash madaniyatini shakllantirish, oilada har bir a'zo fikriga hurmat bilan yondashish va ularni diqqat bilan tinglash muhimdir. Bu munosabatlarni mustahkamlaydi va ziddiyatlarning oldini oladi. Empatiya va sabr-toqatni tarbiyalash, har bir a'zo boshqalarning holatini tushunishga harakat qilishi, ularga ko'maklashishi va tinch yo'l bilan masalalarni hal etishga urinishi kerak. Ta'lim va tarbiyada nutqiy muloqot farzandlarning odob-axloq qoidalarini shakllantirishda ota-onalar o'rnak

bo'lishi lozim. Ular muloqotda tinch va hissiy ko'tarinkilikka asoslangan usullarni qo'llashlari kerak.

O'zbek oilasida nutqiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari:

O'zbek oilasidagi muloqot asosan an'anaviy qadriyatlar va odob-axloq qoidalari bilan chambarchas bog'liq: Kattalarga hurmat oila muhokamalarida kattalarning fikriga alohida e'tibor qaratiladi. Kattalarning maslahatlari oilaviy qarorlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Insonparvarlik oila a'zolari o'rtasida o'zaro yordam va mehr-oqibatga asoslangan munosabatlar shakllantiriladi. An'analarni saqlash bayramlar va to'ylar kabi tadbirlarda oila a'zolarining faol ishtiroki orqali nafaqat oilaviy qadriyatlar avloddan-avlodga o'tadi, balki oiladagi nutqiy muloqot ham yanada mustahkamlanadi. Ushbu tadbirlar oilaviy birdamlik va yaqinlikni mustahkamlash uchun imkoniyat yaratadi. Bayramlar davomida oila a'zolari bir stol atrofida yig'ilib, iliq suhbatlar quradi, o'tgan voqealar haqida eslaydi va kelajak rejalari haqida fikr almashadi. Masalan, Navro'z yoki Qurbon hayiti kabi bayramlarda birgalikda dasturxon tuzash, mehmon kutish va xayr-ehson qilish jarayonlari muloqotga boy muhit yaratadi. Bu suhbatlar, avvalo, yoshlarga an'analarni o'rgatadi va ularda oila qadriyatlariga hurmat uyg'otadi. To'ylar esa oila a'zolari o'rtasida hamkorlikni oshiradi. To'yga tayyorgarlik ko'rish, mehmonlarni kutib olish va tadbirni o'tkazish jarayonida oila a'zolari bir-biri bilan yaqinlashadi. Bu jarayonda katta yoshdagilar yoshlarni o'z donishmandliklari bilan yo'naltiradi, ular esa hurmat va minnatdorlik bilan muloqotga kirishadilar. An'analardoirasidagi bunday tadbirlar orqali oilaning katta va kichik a'zolari o'rtasida iliq va samimiy munosabatlar shakllanadi. Bu esa nafaqat oilaviy birdamlikni kuchaytiradi, balki jamiyatdagi axloqiy birlik va madaniy me'yorlarni saqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, bayramlar va to'ylar oilaviy nutqiy muloqotning boyishi va an'analarning davom etishiga zamin yaratadi. Din va ma'naviyat ta'siri islomiy qadriyatlar nutqiy muloqotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Islomiy qadriyatlar nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Muloqotda halollik, samimiyat va odob-axloq qoidalari rioya qilish islom ta'limotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, bu insonlar

o'rtasidagi til birligi va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi. Masalan, yoshlarni so'zda halollikka o'rgatish ularga yolg'on gapirmaslik, boshqa odamlarni aldamaslik va berilgan va'dani bajarishni o'rgatadi. Bu esa muloqotda ishonchni oshiradi. Me'yorlilik esa nutqda haddan ziyod bo'lmaslik, boshqalarni ortiqcha gap-so'zlar bilan charchatmaslik yoki ziddiyatlarga sabab bo'lmaslikka undaydi. Shunday qilib, me'yorlilik nutqni aniq va mazmunli qilishga yordam beradi. Shuningdek, islomiy qadriyatlar boshqalarga nisbatan yumshoq va go'zal so'zlashni targ'ib qiladi. Qur'onda shunday deyiladi: "Insonlarga go'zal so'zlarni aytinglar" (Baqara surasi, 83-oyat). Bu tamoyil muloqotda samimiy muhit yaratishga xizmat qiladi va odamlar o'rtasida iliqlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, islomiy qadriyatlarni nutqiy muloqotga tatbiq etish nafaqat individlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, balki jamiyatda madaniy va axloqiy yuksalishga ham hissa qo'shadi. Oila har bir shaxsning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi uchun muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Oilaviy muloqot esa bu muhitning asosiy tarkibiy qismi sifatida shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda va har bir a'zoning ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Oila muhitida nutqiy muloqot nafaqat shaxsiy munosabatlarni mustahkamlashda, balki farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda hurmat, tinglash, empatiya va birdamlik asosiy qadriyatlar bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek oilasidagi odob-axloq va ma'naviy qoidalarga muvofiq muloqot oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlaydi. Bugungi kunda oilalarga muloqot madaniyatini shakllantirish va uni barqaror saqlash uchun muntazam vaqt ajratish juda muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Oila institutining huquqiy asoslari haqida.

2. Hoshimova N.H. "Oila va axloq: milliy va ma'naviy qadriyatlar" – oilaviy qadriyatlarning shakllanishidagi asosiy jihatlar.

3. Karimova D. "Muloqot psixologiyasi" – insonlar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosliklari haqida.

4. Sharifxonova M. "O'zbek oilasida axloqiy tarbiya" – milliy qadriyatlar va urf-odatlar haqida.

5. Aslonov U. "O'zbek madaniyati va oilaviy munosabatlar" – oilaviy tarbiya va muloqot madaniyatiga oid tadqiqotlar.